

INGLIZ TILI KECHA VA BUGUN BOSHLANG'ICH TA'LIMDA DASTLABKI KO'NIKMA YUTUQLARI

Mirzaqulov Shuhratjon Qashqaraliyevich

Farg'ona viloyati, Uchko'prik tuman Sobirjon MFY elektrigi

Annotatsiya

Ushbu maqolada 90-yillardagi ingliz tilini hayotda tutgan o'rni va bugungi yutuqlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, lingofon, multfilmlar.

1992 - yil 5-sinfdan ingliz tilidan boshlang'ich ta'lim ola boshladim. O'qituvchi tomonidan harflarni tezda o'rganib yodlash uchun magnin tasmali lingofonda hayvonlar tilida ijro etilgan alfavit qo'shiqlarini qoyib berardi. takrorlash darslarida bilimlarimizni mustahkamlash uchun har birimiz bilan alohida dialog matnlarini magnit tasmaga yozib olib qayta eshittirish orqali so'zlarni ravon va harflarni to'g'ri talaffuz qilish ustida ishlardik. Har chorak ohirida plyonkali proyektor orqali qiziqarli multfilmlar qo'yib bizni ingliz tiliga yana ham qiziqishimiz ortardi. Men ham o'ta qiziqqanimdanmi berilgan uyga vazifalarni daftarga yozmas edim. U paytlari sinflar uchtagacha bo'lardi. A, B va G sinflar krill alifbosi harflarida har bir sinfdan 33 uchtdan o'quvchi o'qir edik. Ingliz tili darsi ikki guruhga bo'lib o'qitilgani bois men ikkinchi guruh boshida jurnalda birinchi bo'lganim uchun deyarli har bir dars men bilan boshlanardi. Qani Mirzaqulov turchi o'tgan darsda nimani o'rgandik uyga vazifa nima edi. O'tgan darsni aytib berganimdan so'ng qani uyga vazifani ko'rsatchi deb daftarimga qarab yozmapsanu qani doskaga chiq derdu. Doskaga chiqib uyga vazifani doskaga yodaki yozib bersam otir besh deb qani tayyorlamaganlar bo'lsa ko'chirib olinglar derdi. Bu bilan boshqa oquvchilarni bu vaziyatdan olib chiqardim. Chunki o'qituvchimiz kezi kelganda dars tayyorlamaganlar deraza oldiga chiqarib qani pastga sakra deb qattiq ohangda gapirib qattiqqo'llik qilardi. Bu usuli bizga yaxshi o'qishimizga turtki bo'lardi. Bu ham qandaydir samarali usul edi. Mustaqillikning dastlabki yillarida shunday bo'lishiga ayrim sabablar bo'lsa kerakda. Chunki ingliz tili xonamiz ikkinchi etajda bolalar esa balanlikdan qo'rqadi. Chunki birinchi guruhda bolalar boshqa honada shunchaki o'qishardi. Zamoniviy jihozlangan ingliz tili honasi bitta edi. Bu jihozlarni birinchi guruh o'qituvchimiz ayol kishi bo'lgani uchun ishlata olmas edi. Shu kabi muammolar bor edi. Keyingi yili endi biz fizikadan boshlang'ich ta'lim ola boshladik. Bu biz uchun boshqa dunyo edi. Har bir darsni intiqlik bilan kutardik.

Chunki fizika xonasi to'liq ko'rgazmali qurollar bilan ta'minlangan va o'qituvchimizni kasbiy salohiyati ham yuqori edi. Biz darslarni to'liq o'zlashtirardik. Bundan tashqari geografiya, musiqa, mehnat va jismoniy tarbiya fanlari bizni jonu dilimiz edi. Adabiyotdan uzun uzun she'r yodlab uni ifodali o'qishlar, ona tilidan insho yozish, matematikadan yozma ishlar ham qiziq edi. Yuqoridagi fanlardan o'qituvchilarimiz tufayli ko'proq shu fanlar ko'proq yoqardi. Lekin kutilmaganda beshinchi sinfni bitirib endi ta'tilga chiqqanimizda adam to'satdan vafot etdi. Katta akam ham 11-sinfni bitirib o'qishga kirmoqchi edi. Oilada onam bilan to'qqiz jon edik. Oltita o'g'il ikki qiz onam qolgandik. Katta akam dadamni kolxozdagi dadamni ishini davom ettirdi. Onam bozorga chiqa boshladi. Ikkita akam uy ishlari bilan band bo'ldi. Men ukamlarga qaraydigan bo'ldim. Mustaqillikning dastlabki yillari bo'lganligi uchun qiyinchiliklar ko'p edi. Oltinchi sinfga chiqqanimda bo'ynimga yara chiqib bir oy maktabga chiqolmay ancha darslarni qoldirganim yetmaganday maktabda ta'lim sifatini yaxshilar maqsadida sinflarda o'quvchilar sonini qisqartirib bari a'lochi o'quvchilarni "A" sinfga qolgan sinflarga aralashtirib natijada

G sinf shakllantirildi. Men esa B sinfda o'qiydigan bo'ldim. Bizni sinf qoloq to'polonchi bo'lganligi uchun sinf rahbari tez almashar edi. Bu esa yomon o'tkaza boshladi. Sekin sekin dars qoldira boshladim. Sinf dan sinfga o'tish imtihonida qatnashardim xolos. Uyda uy yumushlari bilan mashg'ul bo'la boshladim. Uyda televizor ham yo'qligi boiz klub kutubxonasidan ko'proq badiiy kitoblar olib o'qirdim. Kechqurunlari klubda kino berilardi. Kino ko'rgani borardim. Pulim bo'lmasa ham amallab kirib olardim. Keyin klub yopilib ketdi. Kutubxona yo'q. Maktabga deyarli bormay qo'yganman. Lekin bituruv imtihonini a'lo bahoga bitirdim. Maktab direktori ko'p dars qoldirganim sabab barcha fanlardan qoniqarli uch baho chiqarib berdi. Faqat geometriyadan to'rt baho u ham bo'lsa teorema yodlaganim uchun to'rt baho bor edi xolos. Chunki xotira yaxshi edi. Uy yumushlaridan bo'shagan vaqtlarim ko'chadagi sim yog'ochga chiqib kolxozdan sim orqali eshittiriladigan ovozkarnayni ulab tushib radio eshittirishlarni muntazam eshita boshladim. Fizikani yaxshi bilganim bois maishiy texnikalarni mustaqil ta'mirlay boshladim. Mustaqillik yillari bo'lgani uchun bozorni hitoy mahsulotlari egallay boshladi. Ular arzon va qulay ediyu tez buzilardi. Lekin butlovchi qismlari ham hamyonbop edi. Tezda buzilgani sabab qishloqda bitta ustaga ehtiyoj sezila boshladi. Yoshi katta ko'p yillik ustalar bor lekin ular maishiy texnikalarni ilovalari ingliz tilida bo'lgani uchun tushunmasdi. Rus tilida ham ilovasi bo'lardi. Ammo chizmasiga tishlari o'tmasdi. Qo'shnilar sen tushunasan deb menga olib kela boshlashdi. Sekin asta maktabdagi olgan bilimlarim sabab tez orada qishloqda elektromontyor elektrik usta bo'lib yetishdim.

Chunki yurtimizdagi o'zgarishlar yangilanishlar shuni taqazo etardi. Bozor iqtisodiyoti shu yo'ldan borib katta hajmdagi qo'pol ko'p energiya sarflovchi texnik jihozlardan voz kechib tejamkor har tomonlama qulay texnikalar paydo bo'la boshladi. Bugungi kunda maktablar ham har tomonlama zamonaviy jihozlanib barcha fanlar moddiy texnik bazasi to'liq shakllantirilgan holda sifatli ta'lim berilmoqda. Jumldan ingliz tili ta'limi keng miqyosda samarali usullar bilan unga qolgan barcha fanlarni uyg'unlashtirgan holda dunyo standartlari asosida o'qitilmoqda. Mustaqillikning dastlabki yillariga nisbatan yuz chandon salmoqli ishlar qilinmoqda. Hozirgi kunda ingliz tilini bilgan yoshlarimiz fanning barcha sohalarida dunyoga bo'y cho'zib yurtimiz bayrog'ini baland ko'tarmoqda. Bularning barchasi yurtimiz maktablarida ingliz tilini dunyo standartlari asosida o'qitilayotganidan dalolat beradi. Bugungi kunda til bilgan dunyoga chiqmoqda.